



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

№2
2026



SERVIS

ILMIY-AMALIY JURNAL 2026 -yil, 2-soni

Muassis: Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan 2008-yil 31-dekabrda
0561-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
O‘zR OAK Riyosatining 19.03.2017 y., 239/5-sonli qarori bilan e’tirof etilgan

Tahririyat a’zolari:

Mas’ul kotib:

i.f.d., prof. M.Q.Pardayev

Muharrirlar:

i.f.d., dotsent F.A.Safarov
PhD, dotsent I.M.Pardayeva
PhD, I.Sh.Ernazarova

Texnik muharrir:

katta o‘qituvchi F.O.O‘roqov

Korrektor:

PhD, dotsent v.b.
T.I.Yahyoyev

Sahifalovchi:

PhD, dotsent v.b.
H.N.Ochilova

1 yilda 4 marotaba
chop etiladi.

**O‘zbekiston hududida
tarqatiladi.**

Tahririyat manzili:

140100, Samarqand shahar,
Amir Temur ko‘chasi, 9-uy,

tel.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

faks: +998(366)231-12-53
el.pochta:

samisiservis@mail.ru

Tahrir hay’ati raisi:

M.E.Po‘latov – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori,
i.f.d., professor

Tahrir hay’ati raisi o‘rinbosari:

O.M.Pardayev – SamISI prorektori, iqtisod fanlari doktori,
professor

Tahrir hay’ati a’zolari:

M.M.Muxammedov – SamISI professori, iqtisod fanlari
doktori

D.R.Zaynalov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

O.M.Murtazayev – TDIUSF direktori, iqtisod fanlari doktori,
professor

M.R.Boltabayev – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

R.X.Ergashev – QarMII professori, iqtisod fanlari doktori

B.K.G‘oibnazarov – iqtisod fanlari doktori, professor

I.S.To‘xliyev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

K.B.Urazov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

D.H.Aslanova – iqtisod fanlari nomzodi, professor

Q.J.Mirzayev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

B.I.Isroilov – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

G.M.Shodiyeva – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

S.N.Toshnazarov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

R.N.Normaxmatov – SamISI professori, texnika fanlari doktori

A.Bektemirov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

M.T.Alimova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

Z.Dj.Adilova – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

Sh.O.Quvondiqov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

L.N.Xalikova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

F.A.Safarov – SamISI dotsenti, iqtisod fanlari doktori

A.M.Karimova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

I.B.Mattiyev – SamISI professori, pedagogika fanlari doktori

B.F.Boronov – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

A.N.Xoliqulov – SamISI professori, iqtisod fanlari nomzodi

X.A.Raximov – SamISI dotsenti, PhD

S.A.Babanazarova – SamISI dotsenti, PhD

H.N.Ochilova – SamISI dotsenti v.b., PhD

I.R.Berdikulova – SamISI dotsenti v.b., PhD

A.Q.G‘apparov – SamISI dotsenti v.b., PhD

Sevinch Shomurot qizi Arziyeva Gilam ishlab chiqarish korxonalarida iste'molchilar xulq-atvorini o'rganish va marketing qarorlarida qo'llash	147
Xilola Nematovna Ochilova, Mirzohid Azamat o'g'li Iskandarov Boshqaruvda menejment tamoyillarining o'rni, ahamiyati va zaruriyati	151
Nigina Marupovna Usmanova Xizmat ko'rsatish sohasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tutgan o'rni hamda holat tahlili	155
INNOVATSIYA VA RAQAMLI IQTISODIYOT	
Xayrulla Qilichovich Qarshiboyev Iqtisodiy jarayonlarni modellash tirishda chiziqli regressiya modelidan foydalanish	162
Malika Axmad qizi Qurbonova Hududiy boshqaruvda raqamli iqtisodiyot samaradorligini ekonometrik baholash	166
Nargiz Toxirovna Sattarova Mintaqaviy tadbirkorlik subyektlarini raqamli ekotizimga integratsiyalash orqali hududiy raqobatbardoshlikni ta'minlash	169
Gullola Mirkamolovna Toxirova Savdo korxonalarida innovatsion rivojlanish va barqaror iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik	172
Sanjar Safarovich Bazarov Iqlimga moslashuvchan asalarichilikni rivojlantirishda raqamli monitoring tizimlarini baholash	175
MOLIYA, PUL MUOMALASI VA KREDIT	
Shavkat Sobirovich Oltayev Milliy iqtisodiyot taraqqiyotida eksport faoliyatining ahamiyati	180
Nargiza Muzafarovna Babaeva Mikromoliyaviy tashkilotlarning kichik biznesni qo'llab-quvvatlashdagi roli	183
BUXGALTERIYA HISOB, IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT	
Тўлқин Исматулла ўғли Яхёев Қурилиш хизматлари кўрсатувчи корхоналарда 5-сон МХХС стандарти асосида активлар ҳисобини юритиш	191
Jahongir Bakhodirovich Ergashev Savdo korxonalari iqtisodiy samaradorligini moliyaviy ko'rsatkichlar asosida tahlil qilish	194
Давлат Комилов Уразов Актуальные вопросы трактовки, классификации и оценки качества аудиторских услуг	198
Asror Maxmanazar o'g'li Yusupov Qo'shma korxonalarda aktivlarni xalqaro standartlar asosida tashkil etishning o'ziga xos jihatlari	205
Alisher Bobaqulovich Ravshanov Chorvachilik xo'jaliklarida qoramollarni hisobga olish muammolari	210
Nilufar Abdaxatovna Abdukadirova Umumiy ovqatlanish korxonalari faoliyati samaradorligini kompleks iqtisodiy tahlil qilish va baholashning zamonaviy yondashuvlari	215
TA'LIM, KADRLAR TAYYORLASH VA PEDAGOGIKA	
Farrux Shadiyorovich Shanazarov Ta'lim va ijtimoiy xizmatlarning inson kapitalini shakllantirishdagi o'rni	218
Зулфия Самиевна Ганиева, Лазиз Абдирашидович Наврузов Социально-когнитивные механизмы формирования математических компетенций: синтез идей Л.С. Выготского и принципов RIE	223
E'TIBORGA MOLIK MASALALAR	
Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев Жамоада яхши етакчининг борлиги – жамоанинг бахти	227

MOLIYA, PUL MUOMALASI VA KREDIT

Shavkat Sobirovich Oltayev – SamISI dotsenti, i.f.n.

MILLIY IQTISODIYOT TARAQQIYOTIDA EKSPORT FAOLIYATINING AHAMIYATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida eksport salohiyatining tutgan oʻrni ilmiy jihatdan yoritilgan. Xususan, mamlakat eksport hajmining oʻzgarish tendensiyalari, asosiy savdo hamkorlari bilan amalga oshirilayotgan eksport operatsiyalari hamda eksportyor subyektlarga taqdim etilayotgan soliq va moliyaviy ragʻbatlantirish mexanizmlari tahlil qilingan. Shu bilan birga, eksportning iqtisodiy oʻsishga taʼsiri boʻyicha mavjud ilmiy yondashuvlar umumlashtirilib, mualliflik xulosalari va amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit soʻzlar: milliy iqtisodiy rivojlanish, eksport faoliyati, tashqi savdo, bojxona tartib-taomillari, xoʻjalik yurituvchi subyektlar, valyuta tushumlari, mahsulotlar eksporti, tashqi iqtisodiy aloqalar, moliyaviy ragʻbatlantirish, qoʻshilgan qiymat soligʻi, soliq preferensiyalari.

Kirish. Maʼlumki, eksport faoliyatini kengaytirish va eksportyor korxonalarni qoʻllab-quvvatlash iqtisodiy siyosatning ustuvor yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, eksportga yoʻnaltirilgan ishlab chiqarishni rivojlantirish hamda xizmatlar eksportini kengaytirishga davlat tomonidan alohida eʼtibor qaratilmoqda.

Soʻnggi yillarda mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishga qaratilgan keng koʻlamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni xalqaro bozorlarga olib chiqish uchun zarur institutsional va iqtisodiy shart-sharoitlar yaratilmoqda. Bu esa eksport hajmining izchil oshishiga ijobiy taʼsir koʻrsatmoqda.

Shuningdek, qoʻshni davlatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish hamda madaniy-gumanitar hamkorlikni mustahkamlash borasida muhim tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Globallashuv va xalqaro integratsiya jarayonlari jadal-lashib borayotgan bir sharoitda Oʻzbekiston ham xalqaro iqtisodiy tizimga faol integratsiyalashib, tashqi iqtisodiy aloqalarini izchil rivojlantirib bormoqda. Bu jarayonda eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan mexanizmlardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu borada Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “yangi eksport bozorlarini egallash davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri boʻlib qoladi” degan fikr ushbu yoʻnalishning dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Mazkur vazifalarni amalga oshirishda eksport faoliyatini ragʻbatlantirish, tadbirkorlik subyektlari tomonidan yuqori qoʻshilgan qiymatga ega va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, shuningdek, soliq va boshqa moliyaviy imtiyozlar mexanizmlarini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois, milliy iqtisodiyotda eksport salohiyatini oshirish masalasi bugungi kunda ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb yoʻnalishlardan biri hisoblanadi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Ilmiy manbalar tahlili eksport salohiyatini oshirishda turli omillarning muhim oʻrin tutishini koʻrsatadi. Jumladan, D. Chakraborti va S. Mukerji fikriga koʻra, mintaqaviy infratuzilmaning rivojlanishi eksport-import operatsiyalarini samarali tashkil etish uchun muhim omil hisoblanadi. Ular transport yoʻlaklarining takomillashuvi savdo operatsiyalarini tezlashtirish bilan birga, mintaqaviy iqtisodiyotlarni global bozor bilan integratsiyalashuviga xizmat qilishini taʼkidlaydilar.

Shuningdek, N.M. Rasulov va B.B. Mullabayevlar tadqiqotlarida korxonalar eksport salohiyatini oshirishda innovatsion jarayonlarni strategik boshqarish muhim ahamiyat kasb etishi qayd etilgan. Ularning fikricha, innovatsion rivojlanish darajasi bevosita korxonalarning mavjud soliq va bojxona imtiyozlaridan samarali foydalanish imkoniyatlari bilan chambarchas bogʻliqdir.

V. Kvinkning ilmiy izlanishlarida XXI asr sharoitida eksport raqobatbardoshligini shakllantirishga oid nazariy yondashuvlar alohida eʼtibor markazida turadi. Uning fikricha, eksportni qoʻllab-quvvatlashda ochiq bozor tamoyillariga asoslangan yondashuv yuqori samaradorlikni taʼminlaydi. Mazkur yondashuv doirasida soliq va bojxona siyosati vositalari ham muhim tarkibiy element sifatida qaraladi [4].

J. Felip va U. Kumar tadqiqotlarida savdoni yengillashtirish omillarining Markaziy Osiyo davlatlari tashqi savdo faoliyatiga taʼsiri tahlil qilingan. Ularning xulosalariga koʻra, eksport

qiluvchi davlatlar uchun rivojlangan infratuzilma savdo oqimlarini kengaytirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lsa, import qiluvchi mamlakatlar nuqtai nazaridan bojxona tizimining samaradorligi asosiy omillardan biri hisoblanadi [5].

Z. Qurbanov eksport operatsiyalarining iqtisodiy ahamiyatini ta'kidlar ekan, mamlakat valyuta zaxiralarini mustahkamlashda eksport faoliyatining roli yuqori ekanligini qayd etadi. Shu nuqtai nazardan, eksport operatsiyalarini nazorat qilish va baholash tizimini, xususan, soliq auditi metodologiyasini takomillashtirish zarurligini asoslab beradi [6].

Sh. D. Ergashxodjayeva olib borgan ilmiy tadqiqotlar natijalari esa eksportni rag'batlantirish jarayoni jahon bozori konyunkturasi, uning tarkibiy o'zgarishlari hamda rivojlanish tendensiyalariga bevosita bog'liqligini ko'rsatadi [7]. Muallifning fikricha, eksport faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar sonining ortishi nafaqat bandlik darajasini oshirishga, balki mamlakatga valyuta tushumlarini ko'paytirishga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu jarayon ilg'or texnika va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada eksport faoliyatining milliy iqtisodiyotdagi o'rnini baholashda ilmiy tahlil, guruhlash va taqqoslash kabi usullardan foydalanildi. Mazkur metodlar yordamida eksport operatsiyalarining iqtisodiy samaradorligi hamda ularning rivojlanish dinamikasi tizimli ravishda o'rganildi.

Tahlil va natijalar. Ma'lumki, eksport faoliyatini amalga oshiruvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun davlat tomonidan turli soliq va moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlari joriy etilgan. Ushbu imtiyozlar eksport faoliyatini kengaytirish va korxonalar raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Birinchidan, eksportyorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida maxsus institutsional tuzilma – Eksportni rag'batlantirish agentligi faoliyat yuritmoqda. Mazkur agentlik tomonidan eksport bilan shug'ullanuvchi korxonalarga turli moliyaviy yordamlar ko'rsatiladi. Jumladan, transport xarajatlarining ma'lum qismi qoplab beriladi, xalqaro standartlar bo'yicha sertifikatlash bilan bog'liq xarajatlar kompensatsiya qilinadi, shuningdek, xalqaro ko'rgazma va yarmarkalarda ishtirok etish bilan bog'liq sarf-xarajatlar qisman moliyalashtiriladi.

Ikkinchidan, eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalar uchun ayrim soliq imtiyozlari belgilangan. Xususan, ishlab chiqarilgan mahsulotning ma'lum ulushi eksport qilingan taqdirda, aynan shu qismdan olingan daromadga nisbatan foyda solig'i va boshqa ayrim soliqlar bo'yicha yengilliklar qo'llaniladi.

Uchinchidan, eksport operatsiyalaridan olinadigan foyda to'g'ridan-to'g'ri hisoblash usuli asosida aniqlanadi, ya'ni eksportdan tushgan daromad bilan unga bevosita bog'liq xarajatlar o'rtasidagi farq sifatida hisoblanadi. Mazkur foyda ayrim hollarda nol stavka bo'yicha soliqqa tortiladi, boshqa turdagi daromadlar, jumladan, valyuta kursi farqidan olingan foyda esa umumiy tartibda soliqqa tortiladi.

To'rtinchidan, eksport faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha ham qator imtiyozlarga ega. Jumladan, ular eksport operatsiyalari bo'yicha QQSni qaytarib olish, import jarayonida QQS to'lovini kechiktirish hamda ayrim hollarda ushbu soliqni hisobga olish imkoniyatlariga ega bo'ladilar. Bu esa eksportyorlar moliyaviy yuklamasini kamaytirish va ularning likvidligini oshirishga xizmat qiladi.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi Eksport dinamikasi (mlrd AQSH dollari)[8]

Yil	Umumiy eksport hajmi	O'sish sur'ati (o'tgan yilga nisbatan)
2019	17,5	+24,6%
2020	15,1	-13,4% (Pandemiya ta'siri)
2021	16,7	+10,3%
2022	19,3	+15,9%
2023	24,6	+23,8%
2024	27,3	+11,0%
2025	33,8	+24,0%

1-jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, 2025 yilning yanvar–dekabr davrida O'zbekiston Respublikasining umumiy eksport hajmi 33,8 mlrd AQSH dollariga yetgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2019 yil bilan solishtirilganda qariyb 93,1 foizga oshganini anglatadi. Mazkur o'sish sur'atlari mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, xususan eksportni

qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan mexanizmlarning samarali natija berayotganidan dalolat beradi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, izchil olib borilayotgan tarkibiy o‘zgarishlar hamda tashqi savdoni rag‘batlantirish siyosati natijasida 2025-yil yakunlari bo‘yicha eksport hajmining 33,8 mlrd AQSH dollariga yetishi ta’minlandi.

Bundan tashqari, 2-jadvalda keltirilgan ma’lumotlar tahlili 2025-yil davomida O‘zbekiston eksportining asosiy yo‘nalishlari sifatida Rossiya va Xitoy davlatlari yetakchi o‘rin egallaganini ko‘rsatadi. Xususan, ushbu mamlakatlarga amalga oshirilgan eksport hajmi mos ravishda 4,3 mlrd va 2,5 mlrd AQSH dollarini tashkil etgan bo‘lib, ular mamlakat tashqi savdo hamkorlari orasida ustuvor ahamiyat kasb etadi.

2-jadval

O‘zbekiston Respublikasining yirik hamkor davlatlar bilan eksport dinamikasi (mln. AQSH dollari)[8]

Davlat	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Rossiya	1 454	2 058	3 067	3 303	3 780	4 300
Xitoy	1 932	2 518	2 516	2 461	2 520	2 500
Qozog‘iston	903	1 172	1 385	1 380	1 450	1 500
Turkiya	1 018	1 694	1 548	1 200	1 100	1 250
Qirg‘iziston	756	795	925	780	820	850
Tojikiston	405	398	503	520	580	610

Yuqoridagi tahlillar natijasi shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Respublikasining eksport salohiyati asosan yirik savdo hamkorlari – Xitoy Xalq Respublikasi va Rossiya bilan olib borilayotgan iqtisodiy aloqalar hisobiga izchil kengayib bormoqda. Shu bilan birga, statistik ma’lumotlar eksport tarkibining diversifikatsiyalanayotganini, ya’ni tashqi bozorlarga chiqarilayotgan mahsulot va xizmatlar turining ortib borayotganini tasdiqlaydi. Xususan, 2020–2025-yillar oralig‘ida O‘zbekiston tomonidan Xitoy, Rossiya, Qozog‘iston, Turkiya, Qirg‘iziston va Tojikiston kabi davlatlarga turli nomenklaturadagi mahsulotlar va xizmatlar eksport qilingan.

Mazkur jarayon mamlakat eksport geografiyasi bilan bir qatorda uning tarkibiy tuzilmasida ham ijobiy siljishlar yuz berayotganini anglatadi. Shu nuqtayi nazardan, mahalliy ishlab chiqaruvchilar faoliyatini kengaytirish, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni ko‘paytirish hamda yirik savdo hamkorlari bilan iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, 2022-yilda eksport tarkibida tovarlar ulushi 79,5 foizni tashkil etgan bo‘lib, uning ichida sanoat mahsulotlari 23,0 foiz, oziq-ovqat va tirik hayvonlar 8,4 foiz hamda kimyo sanoati mahsulotlari 6,7 foizni egallagan. Qolgan ulush esa boshqa turdagi mahsulotlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu ko‘rsatkichlar eksport tarkibining asta-sekin murakkablashib, qo‘shilgan qiymati yuqori bo‘lgan mahsulotlar ulushi ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Shuningdek, eksport hajmini yanada oshirishda chegaradosh hududlarda ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, yirik savdo hamkorlari bilan chegaradosh viloyatlarda eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish transport xarajatlarini kamaytirish va logistika samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Xulosa va takliflar. Mamlakatimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni liberallashtirish, eksport salohiyatini mustahkamlash, eksportyor korxonalar uchun investitsion jozibadorlikni oshirish hamda soliq va bojxona tizimini takomillashtirish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu yo‘nalishdagi islohotlarning amaliy natijalari quyidagi jihatlarda namoyon bo‘lishi mumkin.

Birinchidan, eksportga mo‘ljallangan mahsulotlarni chegaradosh hududlarda ishlab chiqarishni rivojlantirish orqali transport xarajatlari qisqaradi, bu esa mahsulot tannarxining pasayishiga va eksport hajmining ortishiga olib keladi.

Ikkinchidan, eksport-import operatsiyalarida bojxona va soliq mexanizmlarini takomillashtirish, ayniqsa ularning tashkiliy va metodologik asoslarini rivojlantirish tashqi savdo jarayonlarining samaradorligini oshiradi.

Uchinchidan, istiqbolli tashqi bozorlarni aniqlash, xorijiy eksportyorlar faoliyatini chuqur o‘rganish hamda shu asosda mahalliy ishlab chiqarishni moslashtirish eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 29.12.2020
2. Debashis Chakraborty & Sacchidananda Mukherjee. How Trade facilitation Measures influence Export Orientation, Empirical Estimates with Logistics Performance Index data // Journal of Economics Library. 2016.
3. N.M.Rasulov., B.B.Mullabayev. Innovatsion jarayonlarni strategik boshqarish - korxonalar raqobatbardoshligini oshirishning muhim omili. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. №5 senyabr-oktabr, 2014 yil.
4. V.Kvint. Strategy for the global market. New York, London: Routledge Taylor & Francis, 2015. 520 p.
5. Felipe J. and Kumar U. The role of trade facilitation in Central Asia: A gravity model, Working Paper, №628.-New York: Levy Economics Institute, 2010
6. Qurbonov Z.N. (2011) Soliq hisobi va auditing nazariy va metodologik asoslari. I.f.d. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. avtoref. - Toshkent, B. 26
7. SH.D.Ergashxodjayeve. Xalqaro raqobat. O‘quv qo‘llanma.- T.: TDIU, 2013.-328 b.
8. www.stat.uz-jadvaliy sayti ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

III. Олтаев	Sh.Oltayev
Значение экспортной деятельности в развитии национальной экономики Аннотация. В данной статье научно освещается роль экспортного потенциала в устойчивом развитии национальной экономики. В частности, анализируются тенденции объема экспорта страны, экспортные операции с основными торговыми партнерами, а также налоговые и финансовые механизмы стимулирования, предоставляемые субъектам-экспортерам. Одновременно обобщаются существующие научные подходы к изучению влияния экспорта на экономический рост, выдвигаются выводы автора и предлагаются практические решения. Ключевые слова: развитие национальной экономики, экспортная деятельность, внешняя торговля, таможенные процедуры, субъекты экономики, валютные поступления, экспорт продукции, внешнеэкономические отношения, финансовые стимулы, налог на добавленную стоимость, налоговые льготы.	The importance of export activity in the development of the national economy Abstract. This article scientifically highlights the role of export potential in the sustainable development of the national economy. In particular, the trends in the country's export volume, export operations with major trading partners, and tax and financial incentive mechanisms provided to exporting entities are analyzed. At the same time, existing scientific approaches to the impact of exports on economic growth are summarized, and the author's conclusions and practical proposals are put forward. Keywords: national economic development, export activity, foreign trade, customs procedures, economic entities, foreign exchange earnings, export of products, foreign economic relations, financial incentives, value added tax, tax preferences.

Nargiza Muzafarovna Babaeva – Qo‘qon davlat universiteti professori v.b., iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

MIKROMOLIYAVIY TASHKILOTLARNING KICHIK BIZNESNI QO‘LLAB-QUVVATLASHDAGI ROLI

Annotatsiya. Mazkur maqolada mikromoliyaviy tashkilotlarning kichik biznesni qo‘llab-quvvatlashdagi roli, ularning iqtisodiy ahamiyati va rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida O‘zbekistonda 2020–2025-yillarda mikromoliyaviy tashkilotlar soni, ularning aktivlari, kredit portfeli, kichik biznes subyektlari soni va moliyalashtirish hajmi bo‘yicha statistik ma’lumotlar o‘rganilgan. Tahlillar natijasida mikromoliyaviy tashkilotlar kichik biznes subyektlari uchun muhim moliyaviy manba bo‘lib xizmat qilayotgani, ayniqsa bank kreditlaridan foydalanish imkoniyati cheklangan tadbirkorlar uchun samarali mexanizm ekanligi aniqlangan. Shuningdek, maqolada mikromoliyalashtirish tizimining afzalliklari, mavjud muammolari va ularni bartaraf etish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Kalit so‘zlar: mikromoliyaviy tashkilotlar, kichik biznes, mikrokredit, moliyaviy inklyuziya, tadbirkorlik, kredit portfeli, mikromoliyalashtirish, oilaviy biznes, bandlik, hududiy rivojlanish, raqamli moliyalashtirish, moliyaviy resurslar.

ISSN 2091-5187

❧ “SERVIS” ❧

Jurnal Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tahririyat
bo‘limida nashrga tayyorlandi.

15.05.2026-yilda terishga berildi. 26.05.2026-yilda bosishga ruxsat etildi. Ofset
bosma qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84_{1/8}. “Times” garniturasini. Ofset bosma usuli.
Shartli bosma tabog‘i 15,4. Hisob-nashriyot
tabog‘i 14,37. Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 0105A/26

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining
matbaa bo‘limida chop etildi.
Litsenziya № 025316.
Reestr № X-119112.

Manzil: Samarqand shahri, Shoxruh ko‘chasi, 60-uy.

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2026.